



STILISTIK FIGURALAR VA TROPLAR: NAZARIY ASOSLAR VA LINGVOPOETIK TAHLIL

Tursunov Jaxongir Panjixonovich

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

jakhongir.9613@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning estetik imkoniyatlari, uning obraz yaratish qudrati va inson tafakkuri bilan uzviy bog'liqligi masalasi stilistika va umumiy tilshunoslikning muhimyo'nalishlaridan biridir. Har qanday badiiy matn oddiy axborot uzatish vazifasini bajarish bilan cheklanmaydi; u o'quvchi ongida tasvir, hissiyot va munosabat uyg'otadi. Ana shu estetik ta'sirni yuzaga chiqaruvchi vositalar orasida stilistik figuralar va troplar alohida o'rin tutadi. Ular orqali til o'zining ichki imkoniyatlarini namoyon etadi, so'z ma'nosi kengayadi, sintaktik tuzilma esa ekspressiv xarakter kasb etadi.

Kalit so'zlar: ko'chma ma'no, tafakkur, abstract tushuncha, trop, kognitiv, metafora, sinekdoxa.

Abstract. In this article, the issue of the aesthetic possibilities of language, its power to create images and its inextricable connection with human thinking is one of the important areas of stylistics and general linguistics. Any artistic text is not limited to performing the function of simple information transmission; it evokes images, emotions and attitudes in the reader's mind. Among the means that create this aesthetic effect, stylistic figures and tropes occupy a special place. Through them, the language reveals its internal possibilities, the meaning of the word expands, and the syntactic structure acquires an expressive character.

Keywords: portable meaning, thinking, abstract concept, trope, cognitive, metaphor, synecdoche.

“Trop” atamasi yunoncha *tropos* — “burilish”, “yo'nalish o'zgarishi” ma'nosini bildiradi. Bu nomning o'ziyoq mazkur hodisaning mohiyatini ochib beradi: trop — so'zning o'z asosiy ma'nosidan “burilib”, ko'chma ma'noda qo'llanishidir. A.A.Potebnya tropni tafakkur bilan bevosita bog'lab, uni “fikrning obrazli shakli” deb ataydi. Uning fikricha, inson abstrakt tushunchalarni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki obraz orqali anglaydi. Demak, trop faqat til hodisasi emas, balki bilish jarayonining ham mahsulidir. Masalan, “hayot yo'li” birikmasida hayot harakat va yo'l konsepti orqali tushuntiriladi. Bu yerda yo'lning fazoviy belgisi abstrakt hayot tushunchasiga ko'chiriladi. Natijada til birliklari orasida semantik siljish yuz beradi va yangi obraz hosil bo'ladi.

Metafora tropning eng faol va mahsuldor ko'rinishidir. N.Mahmudov metaforani “tilning eng muhim obraz yaratish mexanizmi” sifatida baholaydi. Darhaqiqat, “ilm

dengizi”, “vaqt uchmoqda”, “qalb ko‘zi” kabi birikmalar inson tafakkurining konseptual modeli asosida yuzaga keladi. Bu jarayonda o‘xshashlik mexanizmi ishlaydi: vaqt harakatga, ilm esa cheksiz suv makoniga qiyosan tasavvur qilinadi. Kognitiv tilshunoslik vakillari J.Lakoff va M.Jonson metaforani inson tafakkurining universal modeli sifatida talqin qilib, “metafora — bu nafaqat nutq, balki tafakkur tizimidir”, deya ta’kidlaydilar. Bu yondashuv tropning lingvistik chegaradan chiqib, konseptual darajada ham faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Metonimiya va sinekdoxa ham tropik hodisalar qatoriga kiradi, biroq ular o‘xshashlikka emas, balki yaqinlik va miqdoriy munosabatga asoslanadi. “Zal qarsak chaldi” jumlasida zal so‘zi binoni emas, undagi odamlarni anglatadi. Bu yerda predmet va u bilan bog‘liq hodisa o‘rtasidagi aloqadorlik asosida ma’no ko‘chadi. Sinekdoxada esa qism va butun munosabati ustuvor bo‘ladi: “yuz bosh yig‘ildi” deyilganda “bosh” so‘zi insonni anglatadi. Bunday tropik birliklar nutqni ixcham, shu bilan birga ta’sirchan qiladi. Troplar bilan bir qatorda stilistik figuralar ham nutqning ekspressivligini ta’minlaydi. Biroq ular ma’no ko‘chishiga emas, balki nutq tuzilishiga tayanadi. V.V.Vinogradov stilistik figuralarni “nutqning shakliyl tashkil etilishi orqali estetik ta’sir hosil qiluvchi vositalar” deb baholaydi. Masalan, anafora — bir xil so‘zning takrorlanishi orqali ritm va urg‘u hosil qiladi: “Men seni kutdim, men seni sog‘indim, men seni unutmadim.” Takror bu yerda nafaqat sintaktik birlik, balki hissiy kuchaytiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Antitezada esa qarama-qarshi tushunchalar yonma-yon qo‘yilib, kontrast orqali mazmun chuqurlashtiriladi: “U kuldi — bahor keldi, u ketdi — kuz yetdi.” Qarama-qarshilik mantiqiy emas, balki estetik ziddiyatni yuzaga chiqaradi.

Inversiya, parallelizm, epifora kabi figuralar ham nutqning ohangdorligini va kompozitsion yaxlitligini ta’minlaydi. So‘z tartibining o‘zgarishi orqali ma’lum birlikka urg‘u beriladi: “Keldi bahor” shaklida fe’lning oldinga chiqishi dinamiklikni kuchaytiradi. Parallel tuzilma esa mazmunni uyg‘unlashtiradi va ritmik muvozanat hosil qiladi. Bu hodisalar sintaktik sathda yuz bersa-da, ularning ta’siri semantik va pragmatik qatlamga ham taalluqlidir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, stilistik figuralar va troplar bir-biridan qat’iy ajralgan hodisalar emas. Ko‘pincha ular birgalikda qo‘llanadi. Masalan, metaforik ifoda takror bilan birikib, yanada kuchli ta’sir uyg‘otishi mumkin. Demak, badiiy nutqda shakl va mazmun o‘zaro uzviy birlikda namoyon bo‘ladi. Vinogradovning “badiiy nutqda mazmun shakl orqali yashaydi” degan fikri aynan shu jihatni ifodalaydi.

Pragmatik nuqtayi nazardan qaralganda, stilistik vositalar muallifning kommunikativ maqsadiga xizmat qiladi. Ular o‘quvchida ma’lum hissiy holatni yuzaga keltirish, baho berish yoki g‘oyani singdirish vazifasini bajaradi. Publitsistik nutqda “muqaddas zamin”, “fidoyi yoshlar” kabi birikmalar baholovchi xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy ongni shakllantirishga qaratiladi. Bu yerda trop va figuralar evaluativlik funksiyasini bajaradi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan stilistik vositalar ko‘p sathli hodisa hisoblanadi. Ular leksik-semantik siljish asosida yuzaga keladi, sintaktik strukturada



ifodalanadi, pragmatik maqsadga xizmat qiladi va kognitiv model bilan bog'lanadi. Demak, trop va figuralar til tizimining barcha sathlari bilan aloqador kompleks birliklardir. Ular orqali til nafaqat axborot yetkazadi, balki voqelikni qayta talqin qiladi, inson tafakkurini shakllantiradi va estetik qadriyat yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, stilistik figuralar va troplar badiiy nutqning ajralmas unsurlaridir. Trop — ma'no ko'chishi asosida obraz yaratsa, stilistik figura — sintaktik qurilish orqali ekspressivlikni kuchaytiradi. Ikkalasi ham tilning estetik potensialini namoyon etadi va inson tafakkurining obrazli tabiatini aks ettiradi. Ularni kompleks lingvistik yondashuv asosida o'rganish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol.fan.dokt...dis.- Toshkent, 2009.3
2. Galperin I.R. Tekst kak ob'ekt lingvisticheskogo issledovaniya. M., 1981.
3. Karimova R.A. Semantiko strukturnaya organizatsiya teksta (na materiale ustnix spontannix i pismennix tekstov): Avtoref. diss... d..ra fil. auk. -M.: 1992, s 27.
4. To'xsonov M. Mikromatn va uning kommunikativ yahlitligi // O'zbek tili va adabiyoti, 1990, 5 - son, 66 – 69 – betlar.
5. Tuxsanov M. Mikrotekst i sistema virajeniya ego kogenetnosti v uzbekskoy xudojestvennoy rechi: Avtoref.diss. ...k-ta filol.nauk. -Tashkent, 1987.
6. Turniyozov N. Matn lingvistikasi (ma'ruzalar matni). -Samarqand, 2004
7. Turniyazova Sh. Hozirgi o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. Filol.fan.nomz...dis.-Toshkent, 2010.
8. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ...diss. – Toshkent, 2001.
9. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi.- Farg'ona, 2002 .